




## 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 57 452,0 mlrd soʻmni, yoki 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar hajmi 55 686,3 mlrd soʻm (102,7%)ni, oʻrmon xoʻjaligi 1 329,7 mlrd soʻm (103,0%), baliqchilik xoʻjaligi 436,1 mlrd soʻm (107,5%)ni tashkil qildi.


Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,3 foizni tashkil etdi.



### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘ati, foizda




### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, foizda



2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,9 foizi dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,3 foizi o'rmon xo'jaligi, 0,8 foizi baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


### Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (6 955,9 mlrd so'm) va Ishtixon (5 753,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on (232,6 mlrd so'm) va Samarqand (367,5 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (108,3%), Qo'shrabot (105,9%), Bulung'ur (103,8%), Pastdarg'om (103,5%), Narpay (103,2%), Urgut (102,9%), Nurobod (102,8%) hamda Oqdaryo (102,8%) tumanlarida kuzatildi. Samarqand (100,3%) va Kattaqo'rg'on (93,4%) shaharlari, Payariq (100,4%) va Kattaqo'rg'on (100,3%) tumanlarida esa, aksincha, o'sish sur'atlari pastligini ko'rish mumkin.

**Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish (o'zgarish) sur'ati, foizda**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari**

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 57 452,0 mlrd so'mni, yoki o'sish sur'ati 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 102,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 20 566,4 mlrd so'm (103,5%), chorvachilik mahsulotlari 25 659,0 mlrd so'm (101,9%) ni tashkil qildi.


**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, foizda**



**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, foizda**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda  
xo‘jaliklarning ulushi, foizda**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 58,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 38,4 foizi fermer xo‘jaliklariga, 3,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, foizda**



2024-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toyloq tumanida (51,4%), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (100,0%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (20,2%) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Nurobod tumanida (18,2%), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Samarqand tumanida (45,1%), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,2%) qayd etildi.


### **Dehqonchilik**

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 29 566,4 mlrd so‘mni, yoki 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati 101,9 foizni tashkil etdi.


Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,5 foizni tashkil qildi.

### **Don jami**


**Hajmi, ming tn.**



**O‘shish sur‘ati, foizda**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,  
foizda**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 903,2 ming tonna don (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,7 foiz ko‘p) yetishtirilgan.

Don yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiy hajmining 84,6 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari  
kesimida donli ekinlar yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna**




**O'sish sur'ati, foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 577,6 ming tonna sabzavot (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,1 foiz ko'p) yetishtirildi.

Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmining 43,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati  
hududlari kesimida  
sabzavot yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Kartoshka


**Hajmi, ming tonna**




**O'sish sur'ati, foizda**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,  
foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 747,6 ming tonna kartoshka (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,1 foiz ko'p) yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmining 58,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari  
kesimida **kartoshka** yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Poliz


**Hajmi, ming tonna**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,  
foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 169,9 ming tonna poliz ekinlari (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2,4 foiz ko'p) yetishtirildi.

Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmining 45,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari  
kesimida **poliz** ekinlari yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Meva va rezavorlar


**Hajmi, ming tonna**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,  
foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 401,8 ming tonna meva (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,1 foizga ko'p) yetishtirildi.

Meva yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmining 42,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari  
kesimida meva va rezavorlar  
yetishtirish hajmi, tonna**




## Uzum


**Hajmi, ming tonna**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi,  
foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 666,1 ming tonna uzum (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,9 foiz ko'p) yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmining 60,4 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Samarqand viloyati hududlari  
kesimida **uzum** yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Chorvachilik



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 25 659,0 mlrd so‘mni yoki 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,5 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,5 foizni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining yetishtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 326,9 ming tonna go‘sh (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,1 foiz ko‘p), 1 456,0 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,8 foiz ko‘p) yetishtirildi, 1 344,6 mln dona tuxum (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,0 foiz ko‘p) olindi, 19 876,3 tonna baliq (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,4 foiz ko‘p) ovlandi.

**Go'sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming tonna**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Yetishtirilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 326,9 ming tonna go'sht (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,1 foiz ko'p) yetishtirildi.

Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmining 79,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha  
go'sht (tirik vaznda)  
yetishtirish hajmi, ming tonna**




**Sut**


**Hajmi, ming tonna**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 456,0 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 3,8 foiz ko'p) yetishtirilgan.

Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmining 90,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha  
yetishtirilgan  
sut hajmi, ming tonna**




## Tuxum


**Hajmi, mln dona**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Olingan tuxum  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 344,6 mln dona (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 4,0 foiz ko'p) tuxum olingan.

Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmining 47,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.


**Samarqand viloyati bo'yicha  
olingan tuxum  
hajmi, mln dona**

## Baliqchilik


**Hajmi, tonna**



**O'sish sur'ati, foizda**



**Ovlangan baliqni  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi, foizda**





- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 19 876,3 tonna baliq (2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,4 foiz ko'p) ovlandi.

Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmining 81,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Samarqand viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq hududlar kesimida  
hajmi, tonna**

### Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o‘shish sur‘ati




2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,6 foizi fermer xo‘jaliklari, 93,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 0,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, mos ravishda qo‘y va echkilar umumiy sonining 9,2 foizi fermer xo‘jaliklari, 85,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 5,5 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonining 20,7 foizi fermer xo‘jaliklari, 76,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 2,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonining 39,2 foizi fermer xo‘jaliklari, 37,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga, 23,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keladi.


2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 765,8 mingtaga yetdi, 2024-yilning 1-yanvar holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 31,7 mingta (1,8%)ga ko‘paydi.

### Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O‘shish sur‘ati, foizda**




**Bosh sonining  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.


**Samarqand viloyati  
bo'yicha yirik shoxli qoramollarning  
umumiy bosh soni, ming bosh**

2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 755,9 ming boshga yetdi, 2024-yilning 1-yanvar holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 5,8 mingta (0,8%)ga ko‘paydi.

### Sigirlar




**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlar bosh sonining 92,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati  
bo'yicha sigirlarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 724,2 ming taga yetdi, 2024-yilning 1-yanvar holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 64,6 mingta (2,4%)ga ko‘paydi.

### Qo‘y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O‘shish sur‘ati, foizda**



**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilar bosh sonining 85,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 30 647 taga yetdi. 2024-yilning 1-yanvar holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 763 ta (2,6%)ga ko‘paydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O‘sinh sur‘ati, foizda**



**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, otlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlar bosh sonining 76,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




**Samarqand viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy bosh soni, bosh**




2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 15 549,3 ming boshga yetdi. 2024-yilning 1-yanvar holati bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 232,5 mingta (1,5%)ga ko‘p.

### Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O‘shish sur‘ati, foizda**




**Bosh soning  
xo‘jalik toifalari  
bo‘yicha taqsimlanishi, foizda**



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2025-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 37,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

**Samarqand viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**

Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• (66) 235-22-01